

## **2023-yilning yanvar-sentabr oylarida amalga oshirilgan import hajmi hamda importni qisqartirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida MA'LUMOT**

### I. Kombinat tomonidan amalga oshirilgan import tahlili.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida kombinat bo'yicha mahsulot va xizmatlar importi hajmi **172,7** mln. dollarni tashkil etdi.

“Navoiy KMK” AJ ning mahsulot va xizmatlar importi tarkibi quyidagicha:

1. Mashina va uskunalari – **89,2** mln. dollar (ulushi 51,7 %), shu jumladan:
  - 4 dona yuk tashuvchi magistral teplovozi - 22,8 mln. dollar;
  - 15 dona kon samosvallari – 16,0 mln. dollar;
  - 9 dona burg'ulash dastgohi – 9,0 mln. dollar;
  - 5 dona avtogreyderlar – 5,1 mln. dollar;
  - 3 dona gusenitsali buldozer – 3,7 mln. dollar;
  - 2 dona gidravlik ekskavatori – 2,4 mln. dollar;
  - 2 maydalash uskunalari – 1,7 mln. dollar;
  - 1 dona aralashtirish-zaryadlash mashinasi – 0,5 mln. dollar;
  - va boshqa uskunalari (texnologik uskunalarni butlovchi qismlar (*beg'araz asosda olib kirilgan*) va b.) – 4,5 mln. dollar.

2. Hom-ashyo va materiallar (og'ir yuk ko'taradigan kon-shaxta texnikasi uchun shinalar va portlashlarni yuzaga keltiruvchi vositalar) – **62,4** mln. dollar (36,1 %);

3. Butlovchilar va ehtiyot qismlar (kon va shaxta texnikasiga ehtiyot qismlar, shu jumladan ichki yonuv dvigatellari va beg'araz asosda olib kirilgan boshqa qismlar) – **13,5** mln. dollar (7,8%);

4. Xizmatlar – **7,6** mln. dollar (4,4%).

Kombinatning asosiy faoliyatiga taalluqli bo'lmagan, Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar importi amalga oshirilmadi.

### II. Kombinat bo'linmalari quvvatlarida mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish.

2023-yilda mahalliyashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tasdiqlangan jadvalga muvofiq, joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 168 ta (jadval bo'yicha 168 ta) loyiha bo'yicha 498,0 mlrd.so'mlik yoki davr prognoziga nisbatan 101,2%ga mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 120,8%ni tashkil etdi. Shu jumladan, mahalliyashtirish dasturi bo'yicha hisobot davrida **120** ta yangi va kengaytirilgan loyihalarda umumiy qiymati

**367,4 mlrd.** so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, davr prognozi 101,3 %ga bajarildi.

Xususan, 55x75 o'lchamdagi yangi turdagi sharli tegirmon, masofada boshqariladigan avtomatlashtirish tizimlari asosida ishlovchi pultlar, vibratsion oziqlantiruvchi boshqaruv shkafi, yangi turdagi kon-shaxta burg'ulash texnikalari uchun ehtiyot qismlari kabi mahsulot turlari o'zlashtirildi.

### III. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperasiya aloqalarini kengaytirish va kooperasiya hisobiga importni optimallashtirish.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida sanoat kooperasiyasi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan sanoat mahsulotlar hajmi **4 018,0** mlrd. so'mni va 2022-yilning mos davriga nisbatan 112,6% ni tashkil etdi.

Kombinatning 2023-yilga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"ga asosan, import bo'yicha olib kiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperasiyasini kengaytirish hisobiga importni qisqartirishning maqsadli ko'rsatkichlari yanvar-sentabr oylarida **76,1** mln. dollarni tashkil etdi.

Kombinat tomonidan xarid qilinishi ko'zda tutilgan, kelib chiqishi import bo'lgan tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron kooperasiya portalining "Import muqobili bo'yicha so'rov yuborish" bo'limiga joylashtirish orqali ularni o'zlashtirish bo'yicha potentsial ishlab chiqaruvchilarni aniqlash bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

"Navoiy KMK" AJ tomonidan Vazirlar Mahkamasining tasdiqlangan reja grafigiga asosan, har yili o'tkaziladigan hududiy sanoat va kooperasiya yarmarkalarida o'rnatilgan tartibda ishtirok etmoqda. Xususan, "Navoiy KMK" AJ tomonidan 2023-yil 16-17 mart kunlari Jizzax viloyatida, 13-14 aprel kunlari Buxoro viloyatida, 30-31 may kunlari Samarqand viloyatida, 16-17 iyun kunlari Farg'ona viloyatida, 24-25 avgust kunlari Surxondaryo viloyatida, 7-8 sentabr kunlari Navoiy viloyatida, 14-15 sentabr kunlari Namangan viloyatida, 21-22 sentabr kunlari Xorazm viloyatida o'tkazilgan yarmarkalarda munosib ishtirok etib mahsulotlar xarid qilish bo'yicha **816,0 mlrd.**so'mlik hamkorlik shartnomalari tuzildi.